

Boshqaruv a'zolari:

B.Jurayev

S.Shamsiddinov

A.Raxmanov

Sh.Muxitdinov

O.Turajonova

I.Salidjanov

M.Arslanov

Bank Boshqaruvining 2023 yil 27-martdagi 189-sonli qaroriga ilova

“Hamkorbank” ATB da aktivlarning shartlarini qayta ko‘rib chiqish

TARTIBI

1-bob. Umumiy qoidalar

2-bob. Kollegial organlar vakolat darajalari

3-bob. Aktivlarni shartlarini qayta ko‘rishning maqsadi va shartlari

4-bob. Taqdim qilinadigan hujjatlar va aktiv shartlarini qayta ko‘rib chiqish

5-bob. Asosiy qarzga doir to‘lovlardan voz kechish

6-bob. Qarz oluvchi yoki kredit ta‘minotining o‘zgartirilishi

7-bob. Shartlari qayta ko‘rib chiqilgan aktivlarni tasniflash

8-bob. Yakuniy qoidalar

1-ilova. Aktivlarni shartlarini qayta ko‘rib chiqish yuzasidan xulosa shakli

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Mazkur Tartib O‘zbekiston Respublikasining “Banklar va bank faoliyati to‘g‘risida”gi Qonuni, Adliya vazirligida 14.07.2015-yilda 2696-son bilan ro‘yxatga olingan “Tijorat banklarida aktivlar sifatini tasniflash va aktivlar bo‘yicha ehtimoliy yo‘qotishlarni qoplash uchun zaxiralar shakllantirish hamda ulardan foydalanish tartibi to‘g‘risida”gi Nizom, “Hamkorbank” ATB (keyingi o‘rinlarda bank deb yuritiladi) Ustavi, Kredit siyosati hamda boshqa me‘yoriy-

huquqiy hujjatlarga asosan ishlab chiqilgan bo'lib, bank tomonidan aktivlarning shartlarini qayta ko'rib chiqish qoidalarini belgilab beradi.

2. Mazkur Tartib doirasida quyidagi asosiy tushunchalardan foydalaniladi:

kredit mutaxassisi – Chakana biznes bo'limi, Yuridik mijozlarga xizmat ko'rsatish bo'limi va bank xizmatlari ofisidagi kredit ajratish uchun mas'ul bo'lgan mutaxassislar;

monitoring mutaxassisi – Kreditlarni monitoring qilish hududiy bo'limlari xodimlaridan iborat aktivlarni shartlarini qayta ko'rib chiqish masalalaridagi murojaatlarni mazkur tartibga muvofiq ko'rib chiqib, Kredit komissiyasi muhokamasiga kiritadigan mutaxassis;

shartlari qayta ko'rib chiqiladigan aktivlar – favqulodda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan holatlarda hamda shartnoma va (yoki) unga qo'shimcha kelishuvga muvofiq asosiy shartlari o'zgartiriladigan quyidagi aktivlar: kredit, mikroqarz, overdraft, lizing, faktoring, bank kafolati, savdoni moliyalashtirish asosida import akkreditivlari;

kollegial organ (tuzilma) – a'zolari qaror qabul qilishda mustaqil bo'lgan, o'z fikrini himoya qilishda teng huquqli, muzokara va muhokamalarga asoslanib kengashgan holda qaror qabul qiluvchi tashkiliy tuzilma;

kredit qoldig'i – bir qarzdor yoki o'zaro aloqador qarzdorlar guruhiga to'g'ri keluvchi jami aktivlarning so'ndirilmagan qismi.

2¹. Aktivlarning shartlarini qayta ko'rib chiqish loyihalari quyidagilardan iborat:

a) aktiv (kredit, lizing, faktoring, overdraft, bank kafolati, savdoni moliyalashtirish asosida import akkreditivlari, mikroqarz hamda ular bo'yicha hisoblangan foizli daromadlar) bo'yicha bank va mijoz o'rtasida tuzilgan shartnomaning to'lov muddatlariga o'zgartirish kiritish;

b) foiz stavkasini qayta ko'rib chiqish;

c) kredit to'lovlarini kechiktirganlik uchun jarima va penyalar miqdorini kamaytirish;

d) asosiy qarzning kamaytirilishi yoki undan qisman voz kechilishi (aktivning foydalanilmagan qismi kamaytirilishi bundan mustasno);

e) foizlar va (yoki) asosiy qarzga doir to'lovlarning bir qismi yoki barchasidan voz kechilishi;

f) qarzdorning o'zgartirilishi;

g) qarzdorning mulkchilik shaklini o'zgartirilishi;

h) ta'minot turining o'zgartirilishi (kreditning bir qismi qaytarilganligi munosabati bilan ta'minotdan chiqarilgan hamda aktiv summasini garov summasiga nisbati bankning ichki hujjatlarida ko'rsatilgan chegaradan ko'p bo'lmagan holatlar bundan mustasno).

2-bob. Kollegial organlarning vakolat darajalari

3. Aktivlar shartlarini qayta ko'rib chiqish loyihalari aktiv qoldig'iga qarab Bosh bankda tashkil etilgan quyidagi kollegial organlar tomonidan yakuniy qaror qabul qilinadi:

a) qoldig'i **5,0 mlrd. so'mgacha** (shu jumladan 5,0 mlrd.so'm) bo'lganda – Aktivlar shartlarini qayta ko'rib chiqish Maxsus komissiyasi (keyingi o'rinlarda – Maxsus komissiya);

b) qoldig'i **5,0 mlrd. so'mdan 20,0 mlrd. so'mgacha** (shu jumladan 20,0 mlrd.so'm) bo'lganda – Kredit qo'mitasi;

c) qoldig'i **20,0 mlrd. so'mdan yuqori** bo'lganda – bank Boshqaruvi;

d) qoldig'i bank birinchi darajali kapitalining 10 (o'n) foizidan yuqori bo'lganda – bank Kengashi.

3¹. Agar aktiv qoldig'i shartlari qayta ko'rib chiqilayotganda vaqtda **20,0** mlrd. so'mdan yuqori bo'lib, "Tijorat banklarida aktivlar sifatini tasniflash va aktivlar bo'yicha ehtimoliy yo'qotishlarni qoplash uchun zaxiralar shakllantirish hamda ulardan foydalanish tartibi to'g'risida"gi (ro'yxat raqami 2696-son, 14.07.2015-y.) Nizomga asosan aktivning shartlari o'zgartirilgandan so'ng, aktiv tasnifini o'zgartirish va shartlari qayta ko'rib chiqilgan aktivlar deb tasniflash talab etilmasa, loyiha Kredit qo'mitasi vakolati darajasida ko'rib chiqiladi.

...

3⁵. Aktivning to'lov grafigi bo'yicha to'lovlar to'lanadigan oy ichida to'lov sanasining o'zgartirilishi bo'yicha yakuniy qaror Aktivlar shartlarini qayta ko'rib chiqish maxsus komissiyasi tomonidan qabul qilinadi.

Qarzdor tomonidan aktivni muddatidan oldin qisman so'ndirishi hisobiga to'lovlar ortga surilmagan holda to'lov grafigini qayta shakllantirish Kredit komissiyasi tomonidan mustaqil ko'rib chiqiladi.

...

7. Bankka aloqador shaxslarga ajratilgan aktivlarning shartnoma shartlari qayta ko'rilganda hamda shartnoma shartlari ikkinchi va undan ko'p marta qayta ko'rilayotgan aktivlar bo'yicha loyihalar Kredit qo'mitasi qaroriga asosan bank Boshqaruvida ko'rib chiqiladi. Bankka aloqador shaxslarga ajratilgan aktivlarning shartnoma shartlarini qayta ko'rish bo'yicha loyihalarga bank Boshqaruvi tomonidan rozilik berilgandan so'ng yakuniy qaror qabul qilish uchun bank Kengashiga taqdim qilinadi.

3-bob. Aktivlarning shartlarining qayta ko'rib chiqishning maqsadi va shartlari

8. Aktivlarning shartlarini qayta ko'rib chiqishning asosiy maqsadi aktivning asosiy shartlari o'zgarishi yoki qayta ko'rib chiqishi natijasida mijozlarning biznes samaradorligini ta'minlash, ularning biznes sharoitlariga moslashish, ularga moliyaviy qiyinchiliklardan muvaffaqiyatli o'tishlariga ko'maklashish orqali imkoniyat berish hamda aktivni to'liq va sifatli qaytarilishini ta'minlashdan iboratdir.

9. Jismoniy shaxslarga ajratilgan kreditlarning shartlarini qayta ko'rib chiqishdan maqsad ajratilgan kredit ta'minoti bank Kredit siyosati va boshqa ichki me'yoriy hujjatlariga muvofiqligini ta'minlash, aholini moliyaviy barqarorligi, daromadlilik darajasi va daromadiga ta'sir qiladigan kelgusida vujudga kelishi mumkin bo'lgan boshqa omillardan kelib chiqqan holda bank tarmoqlari tomonidan ajratilgan aktivlarning sifatli qaytarilishini tartibga solishdan iboratdir.

9¹. Quyidagi holatlarda aktivlarning shartlarini qayta ko'rib chiqish mumkin:

- a) asosli sabablarga ko'ra qarzdorning to'lov qobiliyati vaqtincha pasayganda, shu jumladan mavsumiylik ta'siri sababli;
- b) tegishli vazirlik va idoralar qarorlarining qarzdor faoliyatiga ta'siri sababli;
- c) investitsion kreditlarda loyihaning spetsifikatsiyasi o'zgarganda yoki texnik iqtisodiy asoslarga o'zgartirishlar kiritilganda;
- d) bank kafolatlari bo'yicha texnik iqtisodiy asoslarga o'zgartirishlar kiritilganda;
- e) jismoniy shaxsning nogironlik, sog'ligiga jiddiy shikast yetishi;
- f) ayollarning homiladorlik va tug'ish ta'tilida bo'lishi (ushbu holatda kredit muddati 10 oygacha uzaytirib berilishi mumkin)
- g) rasmiy daromadining pasayishi (boshqa ishga o'tishi munosabati bilan);
- h) o'zini-o'zi bank qilgan jismoniy shaxslarda daromad manbai bo'lgan asosiy vositasiga jiddiy shikast yetishi;

- i) fors-major holatlari (mamlakatda ommaviy pandemiya e'lon qilinishi, urushlar, tabiiy ofatlar va h.k.)

10. Investitsion loyihalarning shartlarini qayta ko'rib chiqish uchun asos sifatida investitsion loyiha texnologik spetsifikatsiyasi o'zgarganda yoki boshqa asosli sabablarga ko'ra texnik iqtisodiy asoslarga o'zgartirishlar kiritilgan taqdirda, faqatgina uzaytirilgan davrda aktivni so'ndirishning aniq manbalari mavjud bo'lgan hollardagina ko'rib chiqilib, tegishli qaror qabul qilinadi.

11. Xorijiy valyutada savdoni moliyalash uchun ajratilgan aktivlar shartlarini qayta ko'rib chiqishda akkreditivning muddati, turi va uni bajarish usullari, mahsulotlarni yetkazib berish (ishlar bajarish, xizmatlarni ko'rsatish) muddatlari o'zgarishi yoki boshqa asosli sabablarga ko'ra ko'rib chiqiladi.

12. Bank (kafil) tomonidan o'z mijozi (prinsipal)ga taqdim etilgan bank kafolati shartlari qayta ko'rib chiqilishi shartnoma predmeti yoki maqsadi, shartnomaning bajarilish muddatlari va boshqa asosli sabablarga ko'ra texnik iqtisodiy asoslarga o'zgartirishlar kiritilgan vaziyatlarda, mijozning uzaytirilgan davrda aktivni so'ndirishning aniq manbalari mavjud bo'lgan hollardagina ko'rib chiqiladi. Kafolat bo'yicha benefitsiarga tegishli bo'lgan kafilga talab qo'yish huquqi boshqa shaxsga o'tkazilishi mumkin emas.

13. Bank tarmoqlari kredit komissiyasi har qanday aktivning shartlarini qayta ko'rib chiqish (prolongatsiya, restrukturizatsiya) masalalarini faqat mijozlarning to'lovga layoqatlilik darajasi hamda kelgusida yetarli pul oqimlari manbasi mavjud bo'lgan hollardagina mustaqil ko'rib chiqib, yakuniy qaror qabul qilish va ma'qullash uchun Bosh bankning vakolatli organi muhokamasiga taqdim qilishlari shart.

14. Shartlari qayta ko'rib chiqilgan aktivlar 2696-son Nizomda belgilangan tartibda aniqlanadi.

...

4-bob. Taqdim qilinadigan hujjatlar va aktiv shartlarini qayta ko'rib chiqish

17. Bank tarmoqlari tomonidan aktivlarning shartlarini qayta ko'rib chiqish masalasi Kredit komissiyasi tomonidan dastlabki muzokaralar o'tkazilgandan so'ng loyiha shartlarini qayta ko'rish mumkinligi yuzasidan ijobiy fikrlar mavjud bo'lgandagina ko'rib chiqish uchun qabul qilinishi lozim. Bunda aktivning shartlarini qayta ko'rib chiqilishi uchun qarz oluvchidan quyidagi hujjatlar talab qilinishi lozim:

a) qarz oluvchi tomonidan aktivni shartlarini qayta ko'rib chiqish uchun asoslari keltirilgan ariza;

b) shartlari qayta ko'rib chiqilayotgan aktivning qarz oluvchining faoliyatiga ijobiy ta'sir qilishi yuzasidan ishlab chiqidib tasdiqlangan pul oqimi prognozi (rejalashtirilgan yangi to'lov jadvallari bilan birga);

c) qarz oluvchining hisobot davri boshiga Davlat soliq inspeksiyasi tomonidan qabul qilingan yillik (zarur hollarda choraklik) moliyaviy hisobotlari, debitorlik-kreditorlik qarzдорliklari, ularning tashkil topgan sanalari ko'rsatilgan holda (yakka tartibdagi tadbirkorlar, yuridik shaxs tashkil etmagan holda faoliyat yuritayotgan dehqon xo'jaliklari bundan mustasno), **JUSBP tahlili asosida ajratilgan kreditlarda** JUSBP tahlili orqali qarz oluvchining moliyaviy holati o'rganiladi;

d) shartlari qayta ko'rib chiqilayotgan loyiha bo'yicha qarz oluvchi mulkdorlarining mazkur amaliyotni amalga oshirilishi yuzasidan vakolatli organi roziligi;

e) ta'minot bo'yicha mazkur amaliyotni amalga oshirilishi yuzasidan garovga qo'yuvchi, kafil va boshqalarning vakolatli organining belgilangan tartibdagi roziliklarini ifodalovchi hujjatlar;

f) loyiha shartlarini qayta ko'rib chiqish uchun zarur bo'lgan boshqa hujjatlar;

g) qarz oluvchi va birgalikda qarz oluvchilarning va kafilning shaxsini tasdiqlovchi hujjatlari (aslidan) nusxasi;

h) qarz oluvchi, birgalikda qarz oluvchi va kafillarning daromadlarini tasdiqlovchi ma'lumotnomalar (Bank tomonidan AT "Xalq bank"ning JBPT tizimi orqali mustaqil aniqlash imkoni bo'lmaganda);

i) kredit ta'minoti bilan bog'liq boshqa hujjatlar;

j) jismoniy shaxslarga ajratilgan kreditlarning shartlarini qayta ko'rib chiqishda, ya'ni kredit muddatini o'zgartirish, kredit to'lovlariga imtiyozli davr taqdim etish, kredit foizini o'zgartirish (shartnomada belgilangan o'zgaruvchan foiz stavkasi pasayishi munosabati bilan foiz stavkasining pasaytirilishi holatlari bundan mustasno), shuningdek, qarz oluvchi yoki birgalikda qarz oluvchi o'zgargan hollarda mijoz qarz yuki yoki qarzning daromadga nisbati ko'rsatkichlari hisob kitob qilinishi amaldagi ichki qoidalar talablaridan kelib chiqib qayta hisob kitob qilinishi lozim. Kredit ajratilgan davrda qarz yuki yoki qarzning daromadga nisbati ko'rsatkichlari bo'yicha talablar bajarilmagan holda, ya'ni O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan qarz yukini yoki qarzning daromadga nisbati ko'rsatkichlarini hisoblamasdan yoki unga amal qilmasdan ajratilishi mumkin bo'lgan me'yor doirasida qarz yuki yoki qarzning daromadga nisbati ko'rsatkichlari talabiga roiya etilmagan holda ajratilgan kreditlar kredit ajratilgan davrdagi shartlar asosida ko'rib chiqiladi;

h) jismoniy shaxsga nogironlik belgilanishi, sog'ligiga jiddiy shikast yetishi, homiladorlik va tug'ish ta'tiliga chiqqanligi, rasmiy daromadining pasayishi yoki vaqtinchalik yo'qolishi, o'zini-o'zi bank qilgan jismoniy shaxslarda daromad manbai bo'lgan asosiy vositasiga jiddiy shikast yetganligi bo'yicha asoslantiruvchi xujjatlar;

i) qarz oluvchining mehnat shartnomasi bekor qilinganligi va ish qidirayotgan shaxs sifatida tuman (shahar) kambag'allikni qisqartirish va bandlikka ko'maklashish bo'limlarida ro'yxatga olinganligi bo'yicha ma'lumotlar.

18. Kredit mutaxassisi mijozdan ariza va unga ilova qilinadigan barcha hujjatlarni to'liq qabul qilib olgandan so'ng, shu kunning o'zida mijoz arizasini murojaatlarni ro'yxatga olish elektron jurnaliga ro'yxatga olgan holda, to'liqligini o'rganib chiqib, 1 (bir) ish kunida EHA tizimi orqali monitoring mutaxassisiga ko'rib chiqib, xulosa berish uchun yuboradi. Kredit mutaxassisi mijozdan talab etiladigan hujjatlarni to'liq qabul qilib olishga javobgar hisoblanadi.

19. Aktivlar shartlarini qayta ko'rib chiqish, shu jumladan kredit (lizing, faktoring, kafolat) shartnomasida belgilangan alohida shartlarni qayta ko'rib chiqish loyihalarida monitoring mutaxassisi 3 (uch) bank ish kuni (chakana kreditlar bo'yicha 2 bank ish kuni) mobaynida mazkur amaliyotni amalga oshirish mumkin yoki mumkin emasligi yuzasidan qarz oluvchining faoliyat joyiga borib, amalga oshirayotgan faoliyatini shaxsan ko'rib, shartlari qayta ko'rib chiqilishi sabablari, mijozning moliyaviy holati, pul oqimlari va to'lov qobiliyati, kelgusida yangi to'lov jadvali asosidagi to'lovlarni amalga oshirish manbalari, mavjud biznesning joriy holatini o'rganadi hamda garovga olingan mulklar bo'yicha to'liq mulk monitoringini o'tkazib, Tartibning 1-ilovasiga muvofiq o'zining yozma xulosasini tayyorlaydi va loyiha bo'yicha barcha hujjatlarni EHA tizimi orqali (*"Rozilik" qismiga hududiy bo'lim boshlig'ini tanlaydi*) Kreditlarni monitoring

qilish hududiy bo'lim boshlig'iga taqdim etadi. Kreditlarni monitoring qilish hududiy bo'lim boshlig'i loyiha bilan tanishib, monitoring mutaxassisi xulosasini EHA tizimi orqali tasdiqlaydi.

...

21. Aktivning shartlarini qayta ko'rish, shu jumladan kredit shartnomasiga kiritilgan alohida shartlarni qayta ko'rish bo'yicha rasmiylashtirilgan loyiha monitoring mutaxassisi tomonidan o'zi tayyorlagan xulosani biriktirgan holda EHA tizimi orqali bank tarmog'i Kredit komissiyasi muhokamasiga kiritiladi.

Kredit shartnomasidagi alohida shartlarni qayta ko'rib chiqilishi va qaror qabul qilinish jarayonlari hamda yakunda Bosh bank kollegial organ tomonidan qabul qilingan qaror mazmunini bank tarmog'iga yetkazish bosqichlari mazkur tartibning 22,23,24,25,26,27 va 29-bandlar asosida amalga oshiriladi. Ushbu jarayon bank va mijoz o'rtasida qo'shimcha kelishuv shartnomasi rasmiylashtirish bilan yakunlanadi.

22. Kredit komissiyasi tomonidan 2 (ikki) bank ish kunida barcha taqdim qilingan hujjatlar to'plami atroflicha o'rganilib, muhokama amalga oshirilgach, tegishli qaror qabul qilinadi. Hujjatlarda kamchilik aniqlangan taqdirda, loyiha komissiya muhokamasida ko'rib chiqilmasdan qaytarilishi mumkin. Kredit komissiyasi qarori elektron ro'yxatga olish jurnaliga qayd etiladi.

23. Bank tarmog'i Kredit komissiyasi tomonidan aktivlarning shartlarini qayta ko'rib chiqish loyihalari komissiya a'zolari tomonidan yakdillik bilan qaror qabul qilinsagina loyiha Bosh bankka taqdim qilinadi. Yakdillik bilan qaror qabul qilinmagan loyihalar rad qilingan hisoblanadi va Bek ofis administratori tomonidan 1 (bir) bank ish kunida mijozning murojaati rad qilinganligi to'g'risidagi asoslantirilgan javob xati yuboriladi.

24. Kredit komissiyasining qaroriga asosan yakdillik bilan tasdiqlangan loyihalar monitoring mutaxassisi tomonidan 1 (bir) bank ish kunida barcha hujjatlari ilova qilingan holda, shuningdek "Hamkorbank" ATBda aktivlarni monitoring qilish Tartibi"ga muvofiq amalga oshirilgan monitoring hujjatlari bilan birga vakolatli organlar muhokamasiga kiritish uchun EHA tizimi orqali korporativ kreditlar bo'yicha Kreditlarni monitoring qilish boshqarmasiga, chakana kreditlar bo'yicha Jismoniy shaxslar kreditlarni monitoring qilish bo'limiga yuboriladi.

25. Hujjatlar monitoring mutaxassisi tomonidan EHA tizimida "Xizmat yozishmalari" bo'limiga biriktiriladi. "Imzolovchi" qismiga monitoring xodimi, "Manzil" qismiga esa korporativ kreditlarda Korporativ kreditlarni monitoring qilish bo'limi boshlig'i (keyingi o'rinlarda – bo'lim boshlig'i), chakana kreditlarda Jismoniy shaxslar kreditlarni monitoring qilish bo'limi boshlig'i/yetakchi mutaxassisi kiritiladi. Hujjatlar EHA tizimi orqali yuborilgan kunning o'zida bo'lim boshlig'i tomonidan mas'ul mutaxassisga yo'naltiriladi.

26. Mas'ul mutaxassis 3 (uch) bank ish kunida (chakana kreditlar bo'yicha 2 bank ish kunida) taqdim qilingan hujjatlarni o'rganib chiqib, tegishli barcha hujjatlar taqdim qilinganligini nazorat qilgan holda mazkur masala yuzasidan bank tarmog'i qarorini ma'qullash/rad qilish uchun loyihani EHA tizimi orqali tegishli kollegial organ muhokamasiga kiritadi.

27. Kollegial organ tomonidan loyiha hujjatlari o'rganilib, aktivning shartlarini qayta ko'rish masalasi muhokama qilinadi va loyiha yuzasidan tegishli qaror qabul qilinishi ta'minlanadi. Loyihalar Maxsus komissiyada yoki Kredit qo'mitasida 5 (besh) bank ish kunida ([chakana kreditlar bo'yicha 2 bank ish kunida](#)), bank Boshqaruvida (Kredit qo'mitasidan keyin) 5 (besh) bank ish kunida ko'rib chiqiladi.

...

30. Bek ofis administratori tomonidan 1 (bir) bank ish kunida qaror shartlariga muvofiq murojaat yuzasidan mijozga aloqa xati tayyorlanib yuboriladi. Agar loyiha yuzasidan qaror ijobiy

bo'lsa, mijozning qarorda ko'rsatilgan shartlar asosida aktivning tegishli hujjatlari rasmiylashtirilishi jarayoni boshlanadi.

30¹. "Tadbirkorlikni rivojlantirish kompaniyasi" AJ kafilligi yoki kredit foizlari kompensatsiyasi asosida ajratilgan hamda maqsadli jamg'armalar mablag'lari hisobidan ajratilgan kreditlar shartnomalariga kiritiladigan o'zgartirishlar Kompaniya/Jamg'armalarning roziligi olingandan so'ng amalga oshiriladi.

30². Aktivlar shartlarini qayta ko'rib chiqish loyihalari korporativ kreditlar bo'yicha jami 20 (yigirma) bank ish kunigacha, chakana kreditlar bo'yicha 10 (o'n) bank ish kunigacha bo'lgan muddatlarda ko'rib chiqiladi.

31. Qarorda keltirilgan shartlar xususida mijozning e'tirozlari mavjud bo'lmasa, 2 (ikki) bank ish kunida mazkur qaror shartlariga muvofiq aktiv bo'yicha rasmiylashtirilgan shartnoma, garov, kafillik, sug'urta va boshqa barcha mazkur aktiv bilan bog'liq hujjatlarga tegishli ravishda qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritilib rasmiylashtiriladi va tomonlar o'rtasida tasdiqlanadi. Bunda barcha hujjatlar rasmiylashtirilgan kundagi qarzdorning bank oldidagi barcha qarzdorliklari aks ettirilgan dalolatnoma 2 nusxada rasmiylashtiriladi. Mazkur qo'shimcha kelishuv shartnomalarini rasmiylashtirish amaliyotlari Bek ofis administratori tomonidan amalga oshiriladi. Bunda, notarial idoralarda bank vakili sifatida kredit mutaxassisi ishtirok etadi.

32. Kollegial organ qarori ijrosining ta'minlanishi bank tarmog'i boshqaruvchisi tomonidan nazorat qilinadi.

33. Barcha zaruriy hujjatlar rasmiylashtirilib, aktiv bilan bog'liq barcha shartnomalarga o'zgartirish kiritilib, tomonlar o'rtasida imzolanganach, sug'urta muddatlari yangi muddatga muvofiqlashtirilgandan so'ng, mazkur hujjatlar Bek ofis administratori tomonidan tekshirib, qabul qilib olinadi. Bunda sug'urta va garov shartnomalariga kiritilgan qo'shimcha shartnomalarning muddatlari kredit shartnomasiga qilingan qo'shimcha kelishuv shartnomasining muddatiga mos kelishi, qo'shimcha kelishuv shartnomalarini vakolatli organning shartnoma shartlarini o'zgartirish bo'yicha qabul qilgan qarori shartlariga muvofiqligi, sug'urta to'lovlarning to'langanligi kabi holatlarga e'tibor qaratiladi.

...

37. Shartlari qayta ko'rilgan aktivning tegishli hisobvaraqqa to'g'ri o'tkazilishiga Kredit operatsiyalari ma'murchiligi bo'limi xodimi mas'ul hisoblanadi.

5-bob. Asosiy qarzga doir to'lovlardan voz kechish.

39. Kreditlar uchun hisoblangan foizlardan, bir martalik vositachilik haqlaridan, hisoblangan penya va jarimalardan to'liq yoki qisman voz kechish bo'yicha hujjatlarni o'rganib chiqish va vakolatli organga taqdim qilish mazkur tartibning 4-bobida keltirilgan tartibda amalga oshiriladi.

...

6-bob. Qarz oluvchi yoki kredit ta'minotining o'zgartirilishi

43. Kredit ta'minotining o'zgartirilishi bankning ichki tartiblariga asosan amalga oshiriladi. Ushbu amaliyot bo'yicha vakolatlar "Hamkorbank" ATB da garovga olingan mulklar bilan ishlash to'g'risida"gi Tartib asosida belgilanadi.

44. Qarz oluvchining o'zgartirilishi mijozning asoslantirilgan arizasiga asosan monitoring mutaxassisi tomonidan tayyorlangan xulosa asosida bank tarmog'i Kredit komissiyasi muhokamasiga kiritiladi. Kredit komissiyasining ijobiy qarori qabul qilingandan so'ng, hujjatlar korporativ kreditlar bo'yicha Kreditlarni monitoring qilish boshqarmasiga, chakana kreditlar

bo'yicha Jismoniy shaxslar kreditlarni monitoring qilish bo'limiga taqdim qilinadi. Ushbu loyihaning ko'rib chiqilishi, mijozdan hujjatlarni qabul qilib olish tartibi va muddati hamda o'rganish va ko'rib chiqish muddatlari mazkur tartibning 4-bobida keltirilgan tartibda amalga oshiriladi. Mazkur loyihalar bo'yicha yakuniy qaror korporativ kreditlar bo'yicha Kredit qo'mitasi tomonidan, chakana kreditlar bo'yicha Aktivlar shartlarini qayta ko'rib chiqish Maxsus komissiyasi tomonidan qabul qilinadi.

7-bob. Shartlari qayta ko'rib chiqilgan aktivlarni tasniflash

46. Shartlari qayta ko'rib chiqilgan aktivlarning sifatini tasniflash Adliya vazirligida 14.07.2015-yilda 2696-son bilan ro'yxatga olingan "Tijorat banklarida aktivlar sifatini tasniflash va aktivlar bo'yicha ehtimoliy yo'qotishlarni qoplash uchun zaxiralar shakllantirish hamda ulardan foydalanish tartibi to'g'risida"gi Nizomga muvofiq tasniflanadi.

47. Shartlari qayta ko'rib chiqilgan aktivlarning sifatini tasniflash Korporativ biznes va mikro, kichik va o'rta biznes tavakkalchiliklari departamenti tomonidan amalga oshiriladi.

8-bob. Yakuniy qoidalar

48. Ushbu Tartib Kreditlarni monitoring qilish boshqarmasining asosiy hujjati hisoblanib, Tartib qoidalariga to'liq amal qilish monitoring xodimlari, administratorlar va kredit mutaxassislari zimmasiga yuklatiladi.

49. Tartib talablarining buzilishida aybdor bo'lgan xodimlar qonunchilik hujjatlari hamda bankning ichki me'yoriy hujjatlariga muvofiq javobgar bo'ladilar.

50. Mazkur tartib talablariga amal qilmagan xodimlar amaldagi qonunchilik hujjatlari va "Hamkorbank" ATBning ichki me'yoriy hujjatlariga asosan tegishli tartibda javobgar bo'ladilar.

51. Mazkur hujjat bilan tartibga solinmagan masalalar amaldagi qonunchilikda belgilangan tartibda hal etiladi.

52. Ushbu Tartibda nomi ko'rsatib o'tilgan tarkibiy tuzilmalar, bankning tashkiliy tuzilmasi o'zgarishi yoki boshqa tarkibiy bo'limlarga ajratilgan taqdirda, mazkur tartibda belgilangan vazifa, majburiyatlarni bajarilishi shu funktsiya va vazifalar yuklatilgan tarkibiy tuzilmalar tomonidan amalga oshiriladi.

53. Bank xodimlari tomonidan mazkur ichki me'yoriy hujjat bilan tartibga solinadigan munosabatlarda yuzaga kelgan va yuzaga kelishi mumkin bo'lgan korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar aniqlanganda yoki sodir etilishiga shubha tug'dirgan har qanday holatlar haqida bankning joylardagi Komplayens nazorat departamentini xabardor qilishi shart.

54. O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi o'zgargan taqdirda, tartibga o'zgartirishlar kiritilgunga qadar qonunchilik normalaridan kelib chiqqan holda ish yuritiladi.

**Korporativ va jismoniy shaxslar kreditlarni
monitoring qilish bo'limi boshlig'i:**

F. Karimov

Huquqshunos

A. Komilov

**Mazkur hujjat loyihasi " 13 " mart 2023-yilda bankning elektron hujjat aylanishi
tizimi orqali ichki me'yoriy hujjatlarni ko'rib chiqish ishchi guruhi bilan kelishilgan.**

Ishchi guruh kotibi
Metodologiya sektori mutaxassisi

Z. Shomirzayeva